

## **“TBC Bank” ATBning “Omonatlar bo‘yicha imtiyozlar 4.0” dasturini o‘tkazish qoidalari**

### **MUNDARIJA**

1. Umumiy shartlar;
2. Atama va ta’riflar;
3. Dastur tashkilotchisi;
4. Dasturda ishtirok etish tartibi va sovrin o‘ynalishi;
5. Ishtirokchilar huquqlari va majburiyatlari;
6. Bank huquqlari va majburiyatlari;
7. Mas’uliyat;
8. Nizolarni hal etish tartibi;
9. Boshqa shartlar.

### **1. UMUMIY SHARTLAR**

- 1.1. Mazkur “TBC Bank” ATBning (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi) “Omonatlar bo‘yicha imtiyozlar” dasturining Qoidalari (keyingi o‘rinlarda “Dastur/Aksiya” deb ataladi) Bank Mijozlarining Dasturda ishtirok etish shartlarini va tartibini belgilaydi.
- 1.2. Ushbu Dastur Qoidalari lotereya emas yoki Dasturda ishtirok etish bilan bog‘liq holda, Dastur ishtirokchilari uchun mol-mulk xavfini yuzaga keltiruvchi tavakkalchilik asosida yaratilgan o‘yin emas. Dasturni o‘tkazish tartib-taomili ishtirokchilar tomonidan biror-bir to‘lovni kiritishi bilan bog‘liq emas.
- 1.3. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolar Kodeksining 367-moddasiga va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalar Bankning rasmiy saytida joylashtirilgan - [www.tbcbank.uz](http://www.tbcbank.uz).
- 1.4. Dastur boshlanish sanasi: 2025-yil 14-noyabr; Dastur tugash sanasi: 2025-yil 30-dekabr (shu kuni ham). Dasturning amal qilish muddati: boshlanish sanasidan to tugash sanasigacha (shu kuni ham) bo‘lgan butun davr mobaynida. Dastur doirasida qo‘lga kiritilgan Sovrinlardan foydalanish muddati: 2026-yil 1-yanvardan 30-dekabrgacha (shu kuni ham).
- 1.5. Dastur o‘tkaziladigan joy: O‘zbekiston Respublikasi hududi.
- 1.6. Dasturning amal qilish muddati davomida quyidagi shartlarga javob beradigan istalgan verifikatsiyadan o‘tgan Bank mijozlari Dastur ishtirokchisi bo‘lishi mumkin:
  - 1.6.1. Aksiya boshlanishida 13 oydan ortiq muddatga ochiq muddatli omonatga (omonatlarga) ega;
  - 1.6.2. Mijozning mavjud omonati (omonatlari) ning tugash muddati 2025-yil 1-noyabrdan 30-noyabrgacha bo‘lgan sanalarga to‘g‘ri keladi;
  - 1.6.3. Mijoz tomonidan 2025-yil 14-noyabrdan 30-dekabrgacha bo‘lgan davrda 13 (o‘n uch) oydan kam bo‘lmagan muddatga, umumiy summasi kamida 250 000 000 (ikki yuz ellik million) so‘m miqdorida yangi muddatli yoki qisman yechib olish imkoniyatisiz to‘ldiriladigan muddatli omonat ochish;
  - 1.6.4. Dasturning amal qilish muddati davomida 1.6.3-bandga muvofiq ochilgan omonatda kamida 250 000 000 (ikki yuz ellik million) so‘m miqdoridagi pul mablag‘lari qoldig‘ini saqlash.
- 1.7. Bankning xizmatlari va mahsulotlarini olish, ulardan foydalanish tartibi va shartlari Bankning Bosh Shartlari (keyingi o‘rinlarda “BSh” deb yuritiladi) va Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan va/yoki Bankning mobil ilovasi orqali ko‘rib chiqish mumkin bo‘lgan Bank mahsulotlarining boshqa shartnomalari bilan tartibga solinadi.
- 1.8. Bank mijozlari Dasturning amal qilish muddati davomida 1.6-bandda ko‘rsatilgan shartlarga rioya qilgan holda omonat ochish orqali ushbu Dastur qoidalari va shartlarini qabul qiladi va ularga rozi bo‘ladi.

## 2. ATAMA VA TA'RIFLAR

<b>Bank</b>	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki.
<b>Dastur</b>	“TBC Bank” ATBning “Omonatlar bo'yicha imtiyozlar” dasturi
<b>Bankning Mijozi</b>	Bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxs
<b>Ishtirokchi</b>	Dastur ishtirokchisi sifatida mazkur Qoidalarning shartlariga muvofiq kelgan Bankning mijozi.
<b>Ilova</b>	AppStore va Playmarket platformalarida ishlovchi qurilma-smartfonlarda foydalanish mumkin bo'lgan TBC UZ mobil ilovasi.
<b>Muddatli omonat</b>	Bank mahsuloti – Milliy valyutadagi 13 oydan boshlanadigan muddatli omonat, milliy valyutadagi 13 oydan boshlanadigan muddatli, qisman yechib olish imkoniyatisiz to'ldiriladigan omonat. Milliy valyutadagi 13 oydan boshlanadigan muddatli, qisman yechib olish imkoniyatiga ega to'ldiriladigan omonat.

## 3. DASTUR TASHKILOTCHISI

- 3.1. Dastur tashkilotchisi - Bank.
- 3.2. Bankning rekvizitlari: 100015, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10B-uy. Telefon: +99878 777 2727. Pochta: [contact@tcbank.uz](mailto:contact@tcbank.uz)
- 3.3. Hamkor kompaniya – Locas Tour (“SAFE TRAVEL WORLD” MChJ).

## 4. DASTURDA ISHTIROK ETISH TARTIBI VA SOVRIN O'YNALISHI

- 4.1. Ishtirokchi bo'lish uchun Bank Mijozi Qoidalarning 1.6-band shartlariga rioya qilishi kerak.
- 4.2. Shartlarni bajarganlik uchun Bank tomonidan beriladigan sovrinlar “Imtiyoz” deb ataladi. Ishtirokchilarga beriladigan imtiyozlar toifalari quyidagilardan iborat:  
Imtiyozlar (ixtiyoriy yoki kombinatsiyalangan):
  - a. **“A” imtiyozi:** Toshkent xalqaro aeroportidagi CIP Loungedan bepul foydalanish (ketish yoki kelish uchun);
  - b. **“B” imtiyozi** (ikki qismdan iborat):
    - i. Toshkent xalqaro aeroportining Biznes zaliga bepul kirish va
    - ii. Toshkent xalqaro aeroportida Fast Track xizmati (faqat “O'zbekiston havo yo'llari” aviakompaniyasi bilan parvoz qilganda kirish xizmati).
- 4.3. Ishtirokchida bittadan ortiq Imtiyoz mavjud bo'lgan taqdirda, Bank qolgan Imtiyozlarni uchinchi shaxslarga, ular Ishtirokchi bilan birgalikda parvoz qilish sharti bilan va ushbu Dasturda nazarda tutilgan tartibda o'tkazishga ruxsat berishi mumkin.

Ishtirokchi quyidagi jadvalga muvofiq imtiyozlarni ega bo'ladi.

Dastur davrida ochilgan muddatli omonatlarning umumiy miqdori, so'm		“A” imtiyoz	“B” imtiyoz
250 000 000 dan	650 000 000 gacha	1	2
650 000 001 dan	1 250 000 000 gacha	2	4
1 250 000 001 dan	2 000 000 000 gacha	3	6
2 000 000 001 dan	2 500 000 000 gacha	4	8
2 500 000 001 dan	4 000 000 000 gacha	6	12
4 000 000 001 dan	6 250 000 000 gacha	8	16
6,250,000,000 dan ko'proq		10	20

- 4.4. Imtiyozlardan 2026-yil 1-yanvardan 2026-yil 31-dekabrgacha (shu kuni ham) bo'lgan davrda foydalanish mumkin. Bu davr mobaynida oyiga bittadan ko'p bo'lmagan “A” yoki ikkitadan ko'p bo'lmagan “B” imtiyozlaridan foydalanish mumkin. Ushbu shartlar tomonlarning kelishuviga ko'ra o'zgartirilishi mumkin.

- 4.4.1. “A” va “B” bo‘yicha mavjud imtiyozlar soni 2025-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra 1.6.3-bandga muvofiq ochilgan muddatli omonatlarning umumiy summasi asosida belgilanadi;
- 4.4.2. Agar Dastur ishtirokchisining 2026-yil 1-yanvardan 2026-yil 31-dekabrgacha bo‘lgan davrda muddatli omonatlardagi umumiy summasi oshsa, u holda “A” va “B” imtiyozlar soni jadvalga muvofiq oshib boradi.
- 4.4.3. Agar Dastur ishtirokchisining 2026-yil 1-yanvardan 2026-yil 31-dekabrgacha bo‘lgan davrda muddatli omonatlardagi umumiy summasi kamaysa, “A” va “B” imtiyozlar soni ushbu Qoidalarning 4.4.1-bandiga muvofiq belgilangan miqdorda saqlanib qoladi.
- 4.4.4. Agar ushbu Dasturning 1.6.3-bandiga muvofiq ochilgan omonat muddatidan oldin yopilsa yoki omonat qoldig‘i ushbu Dasturning 1.6.4-bandida belgilangan miqdordan pasayib ketsa, Ishtirokchiga Imtiyozlar taqdim etilmaydi.
- 4.5. Bitta "A" imtiyoz ikkita "B" imtiyozga teng. Ishtirokchi bitta “A” imtiyozidan yoki ikkita “B” imtiyozidan foydalanishi mumkin. “A” imtiyozidan foydalanilganda, “B”ning ikkala imtiyozi ham foydalanilgan deb hisoblanadi. "B" imtiyozlaridan bittasi foydalanilganda, "A" imtiyoz bekor qilinadi, ikkinchi "B" imtiyoz esa foydalanish uchun saqlanib qoladi.
- 4.6. Imtiyozni olish uchun Mijoz quyidagilarni amalga oshirishi zarur:
  - 4.6.1. Imtiyozni olish vaqtidan kamida 48 soat oldin, imtiyoz olish xizmatlarini ko‘rsatadigan bankning hamkor tashkilotiga murojaat qilish lozim;
  - 4.6.2. Imtiyozdan foydalanish niyati haqida hamda uni qo‘llash mo‘ljallangan sana va vaqt to‘g‘risida xabar berish kerak;
  - 4.6.3. Hamkor kompaniya Bankdan mavjud imtiyoz haqida tasdiqnoma olgach, mijozga uni olish imkoniyati to‘g‘risida xabar beradi va aeroportda imtiyozni buyurtma qiladi;
  - 4.6.4. Imtiyozdan foydalanadigan mijozning ismi va familiyasi hamkor kompaniya tomonidan aeroportga ma‘lum qilinadi - imtiyozni boshqa shaxsga berishga yo‘l qo‘yilmaydi (ushbu xizmatni boshqa shaxsga berishda mijoz Bankni ushbu xizmat uchunchi shaxsga o‘tkazilganligi to‘g‘risida xabardor qilishi shart);
- 4.7. Bank imtiyozlarga ega bo‘lgan barcha mijozlarga alohida tartibda shaxsiy menejer va hamkor kompaniyaning zarur aloqa ma‘lumotlarini (telefon raqami, Telegram, elektron pochta, veb-sayt va boshqalar) hamda ushbu mijoz uchun mavjud imtiyozlar sonini xabar qiladi.

## **5. ISHTIROKCHILAR HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI**

- 5.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:
  - 5.1.1. Bank qoidalari va shartnomalarida belgilangan hajmda va tartibda Dastur to‘g‘risida ma‘lumot olish;
  - 5.1.2. ushbu Qoidalarning 1.6-bandiga rioya qilgan holda, ushbu Qoidalarga muvofiq Ishtirokchi maqomini olish;
- 5.2. Ishtirokchi ushbu Dastur qoidalari bilan tanishishi shart. Bank mijozining Dasturda ishtirok etishi avtomat tarzda Bank mijozining ushbu Qoidalar bilan tanishganini va to‘liq roziligini bildiradi.
- 5.3. Ishtirokchi Dastur hamkorlari va Toshken xalqaro aeroportining shartlari va qoidalari bilan tanishib chiqib va qa‘tiy rioya qilishi shart.
- 5.4. Ushbu Dasturda ishtirok etish va ushbu Qoidalarga rozilik bildirgan holda, Dastur ishtirokchisi sovrinlarni topshirish vaqtida olingan fotosuratini Bankning axborot kommunikatsiya kanallarida joylashtirishga roziligini beradi.

## **6. BANK HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

- 6.1. Bank ushbu Qoidalarga muvofiq Dasturni o‘tkazishi, shuningdek, Sovrin taqdim etish bo‘yicha majburiyatlarini bajarishi shart.
- 6.2. Ushbu Dastur Qoidalarning 1.4-bandiga muvofiq butun Dasturning amal qilish muddati davomida Bank tomonidan bekor qilinishi mumkin emas. Bank, shuningdek, ushbu Dasturning

- amal qilish muddatini bir tomonlama tartibda uzaytirish huquqini o'zida saqlab qoladi, bu haqda Bank tomonidan mijozlarga istalgan aloqa kanallari orqali xabar beriladi.
- 6.3. Bank Dastur ishtirokchilarini aniqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida Dasturni amalga oshirish uchun anketalar yoki boshqa ma'lumotlar va hujjatlarni to'plash orqali ishtirokchilarning shaxsga doir ma'lumotlarini to'plash huquqiga ega.
  - 6.4. Bank bir tomonlama tartibda o'yin shartlarini o'zgartirish va Dastur to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni <https://tbcbank.uz/> veb-saytida e'lon qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.
  - 6.5. Bank xavf va suiiste'mollik bo'yicha tekshirish ishlarini o'tkazganidan so'ng, Mijoz sovrinni olish uchun talab qilishi mumkin. Shu bilan birga, agar Bank mijozni noqonuniy, shubhali va/yoki firibgarlik xatti-harakatlarini amalga oshirayotgan deb asosli ravishda hisoblasa, Bank Mijozga ushbu Qoidalar shartlarini bajarishini rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.
  - 6.6. Biroq, Bank: har qanday sovrinlarni bekor qilish; (b) Mijozning Dasturda ishtirok etishini yoki sovrinlarni talab qilishni taqiqlash; (c) Mijozning kelajakdagi aksiyalar va o'yinlardagi ishtirokini bloklash; va/yoki (d) mijozning hisob qaydnomasini to'xtatib qo'yish, har bir holatda, agar u o'zining oqilona fikriga ko'ra, Mijozning xatti-harakatlari ushbu Qoidalarga zid deb hisoblasa va/yoki Mijoz Dastur shartlarini suiiste'mol qilmoqda yoki biron-bir tarzda suiiste'mol qilmoqda deb hisoblasa. Bu esa quyidagilarni o'z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanmaydi:
    - (i) bir nechta hisob qaydnomalar ochish;
    - (ii) ro'yxatga olish vaqtida noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish;
    - (iii) ijtimoiy tarmoqlarda, veb-saytlarda, qidiruv tizimlarida yoki ommaviy tarqatish vositalarning har qanday shakli orqali yolg'on/noqonuniy/noto'g'ri ma'lumotlarni ommaviy ravishda taqdim etish;
    - (iv) hisob qaydnomasining haqiqiy egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga foydalanish huquqini berish.

## 7. MAS'ULIYAT

- 7.1. Bankning Sovrinni taqdim etish majburiyati har qanday toifadagi Imtiyozlar faollashtirilgan vaqtda bajarilgan hisoblanadi.
- 7.2. Bank ushbu Qoidalar bo'yicha texnik muammolar, nosozliklar, tizimlardagi xatolar yoki Dasturning amal qilish muddati davomida hamkorlar va xizmatlarni yetkazib beruvchilari tomonidan majburiyatlarni bajarmaslik bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan majburiyatlarni bajarmaslik uchun javobgar emas. Bank Ishtirokchilarning va Ishtirokchi tomonidan imtiyozlarni foydalanish maqsadida boshqa belgilangan shaxslarning harakatlari uchun javobgar emas.
- 7.3. Agar 7.2-bandda ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelsa, Bank o'zining va hamkorlarining texnik tizimlarida yuzaga kelgan xatolar, nosozliklar va kamchiliklarni bartaraf etish shartlari va muddatlarini mustaqil ravishda belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 7.4. Agar uchinchi shaxslar va hamkorlarning qasddan va/yoki qasddan bo'lmagan harakatlari tufayli Bank tomonidan ushbu Qoidalar shartlarini bajarish imkoni bo'lmasa, Bank javobgar bo'lmaydi.
- 7.5. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan barcha masalalar Bosh Shartlar hamda Bank va Bank mijozni o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

## 8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

- 8.1. Ushbu Qoidalardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq barcha nizoli masalalar do'stona yo'l bilan maslahat va muzokaralar yordamida hal qilinadi. Talabnomalar bildirish tartibi majburiydir.
- 8.2. Agar Tomonlar nizo va kelishmovchiliklarni 8.1-bandga muvofiq hal qilishga erisha olmasa,

nizolar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq Bankning rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan manzilida hal qilinadi.

### **9. BOSHQA SHARTLAR**

- 9.1. Ushbu Qoidalar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan - [www.tbcbank.uz](http://www.tbcbank.uz).
- 9.2. Dastur ishtirokchilari yuqorida ko‘rsatilgan veb-saytdagi tegishli o‘zgarishlarni tekshirish orqali (yuqorida ko‘rsatilgan havoladan foydalanib) Dastur shartlarining yangilanishini mustaqil ravishda kuzatish uchun javobgardirlar.
- 9.3. Bank mijozi TBC UZ mobil ilovasining “Mulohazalar” bo‘limida bu haqda yozish orqali ushbu Dasturda ishtirok etishni rad etishga haqli.
- 9.4. Bank xodimlari, Bankka tegishli shaxslarning xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari Dasturda ishtirok etishlari mumkin emas.